O‘ZBEK TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING HISSIY-EKSPRESSIV VOSITA SIFATIDA TADQIQI

[a]Ernazarova Dilfuza Odilovna
[a]Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *mazkur maqolada o’zbek tilida frazeologik birliklarning hissiy-bo‘yoqdorlikni oshirishdagi vazifalari ko‘rib chiqiladi. Tahlilda iboralarning semantik, pragmatik, stilistik xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi. Natijada barqaror birikmalar o‘zbek tilining milliy ruhini ifodalovchi muhim vosita ekanligi isbotlanadi.*
Kalit so‘zlar: *fraza, ekspressivlik, hissiy bo‘yoqdorlik, pragmatik, semantik, stilistik.*

Fraza (ibora) – so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosi,odatda, bir so‘zga, ba’zan so‘z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko‘chma ma’noli barqaror (turg‘un) birikma. Iboralar adabiy tilning badiiy va so‘zlashuv uslubida keng va ko‘proq qo‘llanadi, nutqni ta’sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Iboralar tilshunoslikda frazema, frazeologizm, frazeologik birikma deb ham yuritiladi. Iboralarni o‘rganuvchi bo‘lim esa frazelogiya deb ataladi.

Frazeologik birliklar o’tgan asrdan beri juda ko‘plab olimlarning e’tiborini tortib kelmoqda. Jumladan, rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov, F.F.Fortunatov kabi olimlar o‘z asarlarida so‘zlarning bog‘lanishlari haqida ilk qarashlarini aytib o‘tishgan. “Rus tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida o‘tgan asrning 50 - yillaridayoq e’tirof etilgan”[1,B.24] va uning birligi sifatida frazema (frazeologizm) tan olingan.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy masalalarini Y.D.Polivanov o‘z tadqiqotlari bilan o‘rtaga tashlagan edi. U bir qator tillar,xususan, o‘zbek tili frazeologiyasini o‘rganib chiqib, frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish haqida fikr bildiradi [1,B.28].

Frazalar – tilda tayyor mavjud bo‘lgan barqaror birikma bo‘lib,nutqda qo‘llanganda obrazlilikni kuchaytirib, tinglovchiga turli munosabatni yetkazishda alohida o’rin tutadi. Iboralar ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi omillardan biridir.Chunki ular ko‘pincha ko‘chma ma’noga ega bo‘lib,nutqda hissiy bo‘yoqni yaqqol ifodalaydi. Masalan :

-ko‘zi chaqnamoq–o‘ta darajada xursandchilikni ifodalaydi;baxt,quvonch tuyg‘ularini yaqqol namoyon etadi[2,B.60].O‘ynoqilik,jo‘shqinlik kayfiyatini ham beradi. ***Ko‘zlari chaqnagan*** *shirin qizaloq chopqillab keldi[3,B.6]*.

-ko‘zi yonmoq- bu ibora ham xursandchilikni ,harakatchanlikni, baxtni ifodalash[2,B.55] bilan bir qatorda,jismoniy-ruhiy ekspressivlikni yuzaga chiqarishi mumkin. *Uning ko‘zlari baxtdan* ***yonib turardi***.-xursandchilikni ifodalayapti. *Issig‘im balandligi uchun* ***ko‘zlarim yonardi***.-jismoniy holati og‘ir ekanligini ko‘rsatyapti.

-xijolat bo‘lmoq-biror narsadan uyalmoq,o‘ng‘aysiz ahvolga tushmoq[2,B.121.]. O‘ta darajadagi kuchli emotsiya va ichki kechinmalarni ifodalaydi. ***Xijolat bo‘lganidan*** *o‘zini juda noqulay his qilardi.*

-yelkasiga qoqmoq- maqtashni,kuchli rag‘batni ifodalovchi harakat[2,B.123.] . Bunda yaqinlikni, iliqlikni ifodalovchi munosabatni ham ko‘rish mumkin. *O‘g‘lining bu ishini ko‘rgan ota uning* ***yelkasiga qoqib qo‘ydi***.

-fig‘oni falakka chiqmoq - juda jahli chiqmoq, ruhan ortiq darajada bo‘g‘ilib,oh-voh qilmoq[2,B.11.]. *Kampirning* ***fig‘oni falakka chiqdi***. Juda qattiq ta’sir natijasida yuzaga kelgan ruhiy bezovtalikni ifodalayapti.

Frazalar nutqda faqat lug‘aviy ma’no bildirmay,hissiy munosabatni ham ifodalaydi, fikrning obrazli tasvirini kuchaytiradi,milliy-madaniy hayot tarzini aks ettirib, ekspressivlik darajasini oshiradi. Iboralar matnga mos tanlansa,kommunikativ ta’sir kuchli bo‘ladi. Noo‘rin qo‘llansa,uslubiy g‘alizliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan:

-belida belbog‘i bor-mard, jasur, haqiqiy er yigit ma’nosini ifodalashi[2,B.7.] bilan birga faxr, g‘urur, ishonch hissini ham beradi. Bu yerda **belbog‘** milliyligimiz,urf-odatlarimiz bilan bog‘liq ramziy belgi vazifasini ham bajaryapti.

-zuvalasi pishiq- a’zoyi badani chiniqqan ,sog’lom, baquvvat ma’nosida ishlatiladi[2,B.133.]. Ijobiy ma’noda qo‘llanilib, faxr tuyg‘usini beradi. **Zuvala** milliylik ramzi bo‘lib ,ko‘p ishlov berilgan, ko‘p e’tibor qaratilganligini ifodalayapti.

- fotiha olmoq(duo olmoq)-biror ishni mustaqil boshlash uchun duo olmoq[2,B.34],bu iborada ijobiy kayfiyat ,o‘ziga ishonch va faxr tuyg‘usi ,qolaversa, ustozga va kattalarga hurmat, bevosita milliy ruh aks etgan bo‘lib ,yuqori darajadagi odob namunasini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, xalqimizda odob – axloqqa, yaxshilikka undovchi iboralar ko‘plab uchraydi. Bunday iboralardan hayotda foydalanish kishilarning milliy xarakterini ochib beradi. Xalqimiz bu kabi til birliklarida ham farzandlarni tarbiyaga va kamolotga undaydi[4,B.17]. O‘zbek millatining madaniyatini tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi tilimizda yanada so‘z boyligining oshishiga va rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Demak ,o‘zbek tilida barqaror birikmalar,ekspressiv-bo’yoqdorlikni amalga oshirishda muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Ular ko‘chma ma’no va obrazlilik orqali tasvirni jonlantirib, emotsional munosabatlarni aks ettiradi ,pragmatik maqsadni yuzaga chiqaradi va nutqda ta’sirchanlikni kuchaytiradi[5,B.57]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013.

2. Mengliyev B.,Xudoyberdiyeva M.,Boymatova O. O‘zbek tili iboralarining o‘quv-izohli lug‘ati.-Toshkent:Yangi asravlodi, 2007.

3. Nazir H.,O‘jar qizlar.-Toshkent: Sharq, 2003.

4. E. Xujaniyazov, N. Sultanova, O‘zbek xalqi turmush tarzi asosida shakllangan frazeologizmlar. – T.: Fan va jamiyat, 2017.

5. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili – T.: Fan 1992.